

“O‘quv-mashq markazi” MCHJdan o‘quv-amaliy seminar

2021 29 Iyun

“O‘quv-mashq markazi” MCHJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi havo kuchlari vakillari, “Uzbekistan Airways” AJ parvoz xizmati departamenti, “O‘zaeronavigatsiya” DK va boshqa aviatsiya tashkilotlari ishtirokida o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.

Seminar doirasida mutaxassislar xalqaro aviaparvozlarni amalga oshirish va ta‘minlash, ingliz tilida radiotelefon aloqasini yuritish, favqulodda vaziyatlarga xavfsiz javob berish, og‘ir ob-havo sharoitlarida aviaparvozlarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati.